QADIMGI TURKIY MAQOLLARNING HOZIRGI O'ZBEK TILIMIZDAGI EKVIVALENTLARI

FarDU lingivistika: o'zbek tili mutaxassisligi 1-kurs magistranti O'rinboyeva Marhaboxon Azizjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi turkiy maqollar va ularning hozirgi o‘zbek tilidagi ekvivalentlari semantik hamda stilistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida qadimgi yozma manbalardagi maqollar zamonaviy maqollar bilan qiyoslanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Natijada maqollarning asosiy mazmuni asrlar davomida saqlanib qolganligi, biroq ularning ifoda shakli soddalashib, tadrijiy taraqqiyotga uchragani aniqlanadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются древнетюркские пословицы и их современные эквиваленты в узбекском языке с семантической и стилистической точек зрения. В ходе исследования проводится сравнительный анализ пословиц, зафиксированных в древних письменных источниках, и их современных вариантов. В результате выявляется, что основное содержание пословиц сохраняется на протяжении веков, тогда как их стилистическая форма претерпевает упрощение и модернизацию.

Annotatision: This article analyzes ancient Turkic proverbs and their modern equivalents in the Uzbek language from semantic and stylistic perspectives. The study compares proverbs found in ancient written sources with their contemporary forms, identifying similarities and differences. The results show that the core meaning of proverbs has been preserved over centuries, while their stylistic expression has become simpler and more modernized.

Kalit so‘zlar: maqol, matal, ekvivalent, qadimgi turkiy til, hozirgi o‘zbek tili, leksik, semantik, fonetik aspektlar, temantika.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va barqaror janrlaridan biri hisoblanadi. Ular asrlar davomida xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va

axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etib keladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda uchraydigan maqollar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ular hozirgi o‘zbek tilidagi maqollar bilan mazmunan uyg‘unlik kasb etadi. Ushbu maqolada qadimgi turkiy maqollarning zamonaviy ekvivalentlari semantik va stilistik jihatdan tahlil qilinadi.

“Maqol va matallar xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko’p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa-voqealarga munosabati demakdir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlariga munosabatida yaratiladi. Xalq maqoli – xalqning mulkidir. Maqol qayg’usi – xalq qayg’usi, maqol g’azabi – xalq g’azabi, maqol kulgusi – xalq kulgusi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Maqol yaratmagan bironta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo’q”1.

O’zbek xalq maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangdir. “Ular mazmuniga vatan, xalq, mehnat, oila, oliy insoniy fazilatlar kabi inson hayoti muhim hisoblangan masalalar haqidagi hukmlar singdirilgan. Shuning uchun ham maqollarni xalqning og’zaki qomusi bilan tenglashtirish odat tusiga kirgan”2

Ekvivalent atamasi tilshunoslikka boshqa aniq sohalardan: matematika, iqtisodiyotdan o’zlashgan. Lekin til uning izohi quyidagicha: “Ekvivalent (lotincha aequivalens — teng baholi) — biror narsaning o‘rnini bosa oladigan, unga teng keladigan, qiymati yoki ahamiyati bo‘yicha teng bo‘lgan narsa yoki miqdordir. Iqtisodiyotda pul tovarlarning umumiy ekvivalenti hisoblansa, kimyoda moddaning 1 mol vodorod atomi bilan reaksiyaga kirishadigan miqdori tushuniladi”3.

Qadimgi turkiy maqollarni topish uchun, albatta, eng ishonchli manba “Devoni lug'oti-t-turk” asaridir. Bu asarda hozirgi o'zbek tilida saqlanib qolgan

1 Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: ФА нашриёти, 1961.

2 Xalq og‘zaki poetik ijodi. O.Madayev, T.Sobitova. – Toshkent: Sharq, 2003.

3 Wikipediya

maqollar ham uchraydi. Ularning aksariyati fonetik, leksik hatto grammatik jihatdan o'zgarishga uchragan bo'lsa ham, bugungi kungacha saqlanib qolgani turkiy tillarning naqadar uzoq tarixga borib taqalishiga asos bo'ladi. Umuman olganda, bir jumlani maqol sifatida shakllanib tilga moslashishi uchun ham necha-necha asrlar kerak. Modomiki, o'n asr avval yozma manbada keltirilgan bir maqolning ham kelib chiqishi yana necha yuz yillar oldinga ham to'g'ri keladi.

“Mahmud Koshg’ariy o’zining “Devonu lug’oti-t-turk” asarida keltirgan maqollardan katta bir qismining bugungi kunda ishlatiladigan ekvivalentlari, ya’ni muqobil variantlari bor. Bunda mavjud maqollar yillar o’tishi bilan birga o’zining sintaktik qurilishini qisman yoki butunlay o’zgartirgan, lekin ma’no-mazmunga putur yetmaydi. Masalan, Alp yağïda, alčaq čoğïda. – «Botir yov bilan to’qnashganda (olishganda), yuvosh tirishishda sinaladi» maqolini olsak, u hozirgi o’zbek tilida “Botir yovda bilinar, So’zchi – dovda” yoki “Mard maydonda sinaladi” maqoli ham ushbu maqolga mazmunan yaqin”4.

Uma kelsa, qut kelar” maqolini misol qilib olsak, ushbu maqol mazmun jihatidan hozirgi kundagi “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan” maqoliga to‘la mos keladi. Mazkur holatda maqolning tashqi shakli, ya’ni leksik tarkibi o‘zgargan bo‘lsa-da, uning ichki mohiyati, asosiy g‘oyasi saqlanib qolgan. Har ikkala maqolda ham mehmon bilan birga baraka, qut va rizq kelishi haqidagi xalqona qarash ifodalangan. Bu esa o‘zbek xalqining qadimdan mehmondo‘stlikni yuksak qadrlaganini ko‘rsatadi. Demak, maqollar tarixiy taraqqiyot jarayonida til jihatidan yangilanib boradi, biroq ularning semantik yadrosi o‘zgarishsiz qoladi.

“Ma’lumki, har qanday fikr ibratli bo’la olmaydi va har qanday ibratli fikr maqol bo’lolmaydi. Shunday ekan, ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun ayrim shartlar mavjud. Birinchidan, maqolga aylanuvchi fikr xalqning ko’p yillik

4 Mirzaaliev I.M. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi. . – Toshkent/2011. – B. 25.

ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, hayotiy tajribasida sinalgan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, maqolda ifodalangan fikr umuminsoniy xarakter kasb etishi kerak. Uchinchidan, har ikki shartga javob beruvchi ibratli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan puxta kristall shaklga ega bo'lishi lozim"5. Ko'rsatilgan ana shu uch shart to'liq yuzaga chiqqandagina ibratomuz fikr maqolga aylanadi

"Erdam bashi til" maqolida esa o'zgarish asosan leksik qatlamda yuz beradi. Ushbu maqolning hozirgi o'zbek tilidagi ekvivalenti sifatida "Odobning boshi til" maqolini keltirish mumkin. Bu yerda "erdam" leksemasi qadimgi turkiy tilga xos bo'lib, hozirgi o'zbek tilida uning o'rnini "odob" so'zi egallagan. Shunday qilib, tarixiy jarayonda ayrim so'zlar iste'moldan chiqib, ularning o'rniga yangi, zamonaviyroq shakllar kirib keladi. Biroq bu o'zgarishlar maqolning umumiy ma'nosiga ta'sir qilmaydi. Har ikkala variantda ham insonning odobi, tarbiyasi, avvalo, uning tilida, nutqida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Qadimgi turkiy tilning yana bir muhim va boy yozma manbalaridan biri — Hibbat ul-haqqoyiq hisoblanadi. Ushbu asar muallifi Ahmad Yugnakiy bo'lib, unda asosan axloqiy-tarbiyaviy, didaktik mazmundagi fikrlar bayon etiladi. Asarda ko'plab turg'un birikmalar, hikmatli so'zlar va, ayniqsa, maqollar keng qo'llangan. Bu maqollar insonni ezgulikka, to'g'rilikka, ilm olishga, do'stlikni qadrlashga undaydi. Shu jihatdan asar nafaqat adabiy, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ham ega.

Masalan, "Og'iz va tilning bezagi to'g'ri so'zdir, so'zni to'g'ri so'zla" degan hikmat mazmuniga mos keluvchi maqollar hozirgi o'zbek tilida ham mavjud. Jumladan, "Ariqni suv bezar, odamni — so'z" maqoli aynan shu g'oyani davom ettiradi. Bu yerda ifoda vositalari va obrazlar biroz o'zgargan bo'lsa-da, asosiy mazmun — insonning qadri uning so'zi, nutqi bilan belgilanadi — o'zgarishsiz

5 Ўзбек халқ мақоллари. 2 томлик. Масъул муҳаррир: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов. 1-том. – Тошкент: Фан, 1987.

qolgan. Bu holat maqollarning zamon o‘tishi bilan shaklan yangilanib, mazmunan barqaror qolish xususiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, “Do‘sting mingta bo‘lsa, ko‘p ko‘rma sira, dushman bitta bo‘lsa, uni oz dema” maqoli ham hozirgi tilimizda o‘ziga xos shaklda qo‘llanadi. Uning zamonaviy varianti sifatida “Do‘sting ming bo‘lsa ham — oz, dushmaning bir bo‘lsa ham — ko‘p” maqolini keltirish mumkin. Har ikkala maqolda ham bir xil hayotiy haqiqat ifodalangan: inson uchun dushman, hatto bitta bo‘lsa ham, xavfli; do‘st esa qancha ko‘p bo‘lsa ham kamlik qiladi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarda ehtiyotkorlik va hushyorlik zarurligini anglatadi.

“Bilim — bitmas tuganmas boylik” “Hibbat ul-haqoyiq” asarida keltirilgan ushbu maqol esa bugungi tilimizda aynan saqlanib qolgan. Bu esa til taraqqiyotida turg’un birikmalar o’z holicha saqlanib qolishi ham mumkinligiga dalil bo’ladi.

Qadimgi turkiy til va hozirgi o‘zbek tili o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda maqollar muhim manba hisoblanadi. Maqollar xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ular til taraqqiyoti jarayonida turli o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, o‘zining asosiy mazmunini saqlab qolgan.

Umuman olganda, qadimgi turkiy maqollar bilan hozirgi o‘zbek maqollarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, til rivojlanishi jarayonida so‘zlar, iboralar va ifoda shakllari o‘zgaradi, lekin xalq donishmandligi, hayotiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlari o‘z aksini topgan asosiy mazmun saqlanib qoladi. Shu sababli maqollar milliy madaniyatning uzluksizligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Qadimgi turkiy maqollar va hozirgi o‘zbek maqollari o‘rtasidagi o‘xshashliklar shuni ko‘rsatadiki, til o‘zgarib, rivojlanib borgan sari uning leksik tarkibi yangilanadi, biroq xalqning ma’naviy merosi, hayotiy tajribasi va donishmandligi o‘z aksini topgan asosiy mazmun saqlanib qoladi. Maqollar ana shu uzluksizlikni ta’minlovchi muhim vosita bo‘lib, ular orqali biz

ajdodlarimizning dunyoqarashi va qadriyatlarini anglaymiz hamda kelajak avlodga yetkazamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaaliev I.M. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi. – Toshkent, 2011.
2. Salomov G‘. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1961.
3. Xalq og‘zaki poetik ijodi / O. Madayev, T. Sobitova. – Toshkent: Sharq, 2003.
4. O‘zbek xalq maqollari. 2 tomlik. Mas’ul muharrirlar: T. Mirzaev, B. Sarimsoqov. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987.
5. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
6. Wikipediya (elektron manba).